



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-86-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlari organlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan tumanda huquqbazarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida tuman Ichki ishlari bo‘limi boshlig‘ining 2023-yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlari hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 mart kunidagi «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlari organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘rnatalayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashda ichki ishlari organlarining roli va mas’uliyatini yanada oshirish borasida bir qator topshiriqlar berilgan edi.

Xususan, shahar-tuman hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika (katta) inspektorlari bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni tizimli hal etish choralarini ko‘rishi yo‘lga qo‘yildi.

Xalqaro hamjamiatning umum-e’tirof etgan ijobiy tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunda haqiqiy ahvolni ish natijasiga qarab tahlil qilishga o‘tildi.

Misol uchun, jinoyatchilik tahlillari oldingi yilning mos davriga nisbatan olingan bo‘lsa, endilikda har bir jinoyat turi 100 ming aholi soniga nisbatan hisoblanishi belgilab qo‘yildi.

Jinoyatchilik ahvoli yuzasidan shuni alohida qayd etish lozimki, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari, o‘tkazilayotgan tadbirlar va kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan mahallalarga qo‘sishimcha kuch vositalarni jalb etilishiga qaramasdan umumiyligi jinoyatchilik 2022-yilning mos davriga (32-40) 8 taga yoki 25 foizga oshib ketishiga yo‘l qo‘yilganligi eng achinarli holat sifatida qarash mumkin.

Jumladan,

Jami jinoyatlar (32-40) +8 taga yoki 25 foizga

JQ bo'yicha jami jinoyatlar (19-22) +3 taga yoki 15,8 foizga

Iqtisodiy sohadagi jinoyatlar (6-10) +4 taga yoki 66,7 foizga

O'ta og'ir jinoyatlar (0-0) sodir etilmagan

Og'ir jinoyatlar (7-4) -3 taga yoki 42,9 foizga

Shuningdek, jinoyatlarning oshgan turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak quyidagilarni ko'rish mumkin.

Qasddan odam o'ldirish (0-0) sodir etilmagan

Og'ir tan jarohati yetkazish (0-0) sodir etilmagan

Firibgarlik jinoyati (7-7) tenglashgan

O'g'irlik jinoyati (5-7) +2 taga yoki 40 foizga

Bezorilik jinoyati (4-2) -2 taga yoki 50 foizga kamaygan

O'lim bilan bog'liq YTXlar (1-1) tenglashgan

Giyohvandlik moddalarini saqlash (0-0) sodir etilmagan

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (0-2) +2 taga yoki 100 foizga

Qasddan badanga yengil tan jarohati yetkazish (2-2) +2 taga yoki 100 foizga

Shuningdek, ayrim soha yo'nalishlarida sodir etilgan jinoyatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshib ketishiga yo'l qo'yilgan.

Jumladan:

Muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan (13-4) -9 taga yoki 69,2 foizga

Guruhlar tomonidan (11-7) -4 taga yoki 36,4 foizga

Ayollar tomonidan (9-3) -6 taga yoki 66,7 foizga

Jamoat joylarida (4-3) -1 taga yoki 25 foizga

Ishlamaydigan o'qimaydigan shaxslar (25-13) -12 taga yoki 48 foizga oshib ketishiga yo'l qo'yilgan.

Solishtiradigan bo'lsak, jinoyatlarning ayrim turlarini sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan, ayrimlari oldi olinishi hisobiga kamayishiga erishilgan bo'lsa,

jinoyatchilikning boshqa bir turlari o'sib ketish holatlari ham kuzatilgan.

Jumladan: bosqinchilik, talonchilik, jinoyatni qasddan yashirish, qonunga xilof ravishda qurol saqlash, mulkni qasddan nobud qilish kabi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Tuman hududida mavjud **36 ta** mahallalardan jami **34 ta** yoki **94,4 foiz** mahallada jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilgan bo'lib, undan **20 ta** yoki **55,5 foiz** mahallada jinoyatlar oshgan, **12 ta** yoki **33,3 foiz** mahallada umumiyl jinoyatchilik kamaygan, **2 ta** yoki **5,5 foiz** mahallada jinoyatlar tenglashgan bo'lsa, faqatgina **2 ta** yoki **5,5 foiz** mahallada jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, mavjud **36 ta** mahallalardan jinoyat kodeksining **48 ta** muddasi bo'yicha jinoyatlar **61,1 foiz** yoki **22 tasida** jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan "yashil" toifaga, **19,4 foizi** yoki **7 tasi** "qizil" toifaga, **19,4 foizi** yoki **7 tasi** "sariq" toifaga kirgan.

Sodir etilgan jinoyatlarni sektorlar kesimida tahlil qilinganda:

1-sektor umumiyl jinoyatlar **11 ta**, shundan oldi olinadigan jinoyatlar **8 tani**;

2-sektorda umumiyl jinoyatlar **5 ta**, shundan oldi olinadigan jinoyatlar **3 tani**;

3-sektorda umumiyl jinoyatlar **11 ta**, shundan oldi olinadigan jinoyatlar **4 tani**;

4-sektor umumiyl jinoyatlar **13 ta**, shundan oldi olinadigan jinoyatlar **2 tani** tashkil etib, faqatgina **4-sektorda** o'tgan yilga nisbatan jinoyatlar kamayishiga erishilgan xolos.

Jinoyatchilik ko'rsatkichi o'sishi natijasida "qizil" toifaga kiritilgan **7 ta** bo'lib, shunda hududlarni mahallalar kesimida tahlil qilinganda:

- **1-sektorda** hududidagi "**Yuqori Xo'jaqiya**" MFYda **1 ta** boshqa jinoyat (122-m);

"**Xomkon**" MFYda **1 ta** yengil tan jaroxati yetkazish;

"**Ho'janqon**" MFYda **1 ta** o'g'irlik, **1 ta** boshqa jinoyat (122-m);

"**Ulug'bek**" MFYda **2 ta** o'g'irlik;

"**Qorasuv**" MFYda **1 ta** bezorilik;

- **3-sektorda** "**Markaz**" MFYda **1 ta** o'g'rilik;

- **4-sektorda** "**Navbahor**" MFYda **1 ta** bezorilik jinoyatlari sodir etilishiga yo'l

qo‘yilib, mazkur yuqoridaq mahallalarning har biri 3 oylik yakuniga ko‘ra “**qizil**” toifadagi mahallalar ro‘yxatiga kirgan.

Jinoyatlarni jilovlash, oldini olish va profilaktika qilish borasida hamkor tashkilotlar bilan ishlarni jadallashtirish, qo‘srimcha kuch va vositalarni jalb qilinishiga qaramasdan **100 ming** aholi soniga nisbatan tumanning **Yuqori Xo‘jaqiya, Xomkon, Ulug‘bek, Xo‘janqon, Qorasuv, Markaz** va **Navbaxor** mahallalari yil boshidan buyon **qizil hududda** turganligi achinarli holat.

Umuman olganda, bugungi kunda tumanda **42 ta notinch oilalar** mavjud bo‘lib ushbu oilalar bilan doimiy ravishda profilaktik ishlarni olib borish lozim.

Xususan, 2023 yilda jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan jami **289 nafar**, shundan **275 nafar** ichkilikka ruju qo‘ygan shaxslar, **13 nafar** tajovuzkor ruhiy kasallar va **3 nafar** giyohvandlar davolash muassasalariga yuborildi, shuningdek, tuman hududida yashovchi muqaddam og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni o‘tab qaytgan va takroran jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan jami **27 nafar** muqaddam sudlangan shaxslarga nisbatan **olti** oydan bir yilgacha bo‘lgan muddatlarga ma’muriy nazorat o‘rtanilgan.

Tumanda huquqbazarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risida 2023-yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlar to‘g‘risida tuman IIB boshlig‘ining hisoboti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman IIB boshlig‘ining huquqbazarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati yuzasidan 2023-yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlar to‘g‘risida hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov), har hafta payshanba kunlari profilaktika uchastka inspektorlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan hamkorlikda “Profilaktika kuni” tadbirlarini tashkil etish, mavjud muammolarni jamoatchilik asosida hal etish choralarini ko‘rsin;

- ichki ishlar organlarining jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbazarlikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga deputatlik va jamoatchilik asosida ko‘maklashish orqali samaradorlikka erishish tizimi yo‘lga qo‘ylisin;

- har bir deputat o‘z saylovchilari hududida jinoyat bilan bog‘liq har bir holatga “favqulorra holat” sifatida qarab, ayniqsa ayollar va yoshlar o‘rtasida o‘g‘rilik, mayda bezorilik, o‘z joniga qasd qilish holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan tadbirlarni

amalga oshirsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (S.Choriyev):

- hududlarda huquqbazarliklarni tizimli tahlil qilib borish, natijalari bo‘yicha huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tegishli yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilib, qonunbuzilishlar yuzasidan qat’iy choralar ko‘rish;

- ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda jinoyatga qarshi kurashishga bag‘ishlangan maxsus ruknlarni tayyorlash orqali aholiga jinoyatlarning sabablari mohiyatini oolib berish, fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashish immunitetini shakllantirishga qaratilgan ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Yoshlar ishlari Agentligi bilan hamkorlikda voyaga yetmagan va 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbazarlik va jinoyatlarni chuqur tahlil qilib, ularning asl sabablarini o‘rganish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Yuqoridaagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida **har chorak yakuni** bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov